

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FUQAROLIK JAMIYATI NAZORATIDA SIYOSIY PARTIYALAR NAZORATINING O'RNI

Abdujabborova Saodat Bozorboyevna

Samarqand shahar 81-maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Tezida mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyatini qurish maqsad qilib qo'yilgani, buning uchun ,eng avvalo, kuchli ijtimoiy tartib o'rnatilishi keraligi aks ettirilgan. Ijtimoiy tartibni o'rnatishda siyosiy partiyalarning o'rni beqiyos. Chunki ular bir paytning o'zida ham davlatga, ham jamiyatga o'z ta'sirini o'tkaza olishi, shuning uchun siyosiy partiyalar nazoratini kuchaytirish juda muhim ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Farovon jamiyat, ijtimoiy tartib, ijtimoiy taraqqiyot, siyosiy partiyalar, ijtimoiy nazorat, ma'naviyat, demokratiya.

Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab, farovon jamiyatni orzu qilib, bunday jamiyat qurishni esa u davlat va hokimiyat bilan bog'lab kelmoqda. Farovon jamiyat qurish ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq, ijtimoiy taraqqiyot esa ijtimoiy tartib bilan bog'liq bo'lganligi tufayli jamiyatda tartib o'natish masalasi har doim dolzarb bo'lib qolmoqda va bugungi kunda ham u o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Insoniyat ijtimoiy tartibning nazorat faoliyati orqali ta'minlanishi mumkinligini allaqachonlar anglab yetgan. Lekin nazorat faoliyati ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lishi uchun u tizimli xarakterda bo'lishi va nazorat mexanizmining ishlab turishini ta'minlash muammo bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat tomonidan nazoratni amalga oshiradigan uchta asosiy vosita, ya'ni deputatlar korpusi, siyosiy partiyalar va mahalla instituti shakllanib rivojlanmoqda. Bu nazorat vositalari ichida davlat va jamiyatga daxldor bo'lgan siyosiy partiyalar nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya mavjud bo'lib, ular o'zlarining nazorat funksiyasini amalga oshirishga harakat qilmoqda. Lekin siyosiy partiyalarning nazorat faoliyati ularga yaratilgan siyosiy-huquqiy sharoitlarga qaramasdan demokratiya talablari darajasidan bir oz orqada qolmoqda. Siyosiy partiyalarning faolligini oshirish bo'yicha Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan aytilgan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

quyidagi fikrlar o‘rinlidir: “Partiyalar o‘rtasidagi baxs-munozaralar jiddiy, professional va amaliy negizda olib borilishi darkor. Aynan shuning uchun ham siyosiy partiyalar o‘z elektoratini o‘ylantirayotgan sotsial-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurroq o‘rganishga va ularni hal etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishga butun diqqat e‘tiborini qaratishi kerak”¹. Siyosiy partiyalar o‘zlarining nazorat funksiyalarini demokratiya talablari darajasida amalga oshirishlari uchun ular kuchli bo‘lishlari lozim. Shuning uchun siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Partiya o‘zining mafkuraviy faoliyatida asosiy e‘tiborni partiya a‘zolarini, tarafdorlarini va, umuman, barcha aholi qatlamlarining bilim va ma‘naviyatini yuksaltirish masalalariga qaratishi lozim. Ayniqsa, ma‘naviyatning yuksalishi fuqarolik jamiyatini kuchli qilishda va fuqarolik jamiyati instituti bo‘lgan siyosiy partiyani kuchli qilishda muhim ahamiyatga ega. Chunki adolatni o‘rnatishda ma‘naviyat hech qanday mubolag‘asiz hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu xususda gapirib, “Adolat va ma‘naviyat-o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Ma‘naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi”², -deb ta‘kidlagan. Ma‘naviyat insonning o‘z ustidan bo‘lgan hokimiyatini kuchli qilib, kuchli fuqaroni shakllantiradi. Kuchli fuqaro fuqarolik jamiyatini va, demak, siyosiy partiyani kuchli qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Nazorat faoliyati ijtimoiy tartibni o‘rnatishi uchun nazorat tizimining ishlab turishini ta‘minlaydigan mexanizm shakllangan bo‘lishi lozim. Davlat va jamiyat nazorat vositalaridan iborat bo‘lgan nazorat tizimi mexanizmini harakatga keltiradigan biror bir kuch bo‘lishi kerak, chunki har qanday mexanizm ma‘lum bir kuchlar ta‘sirida harakatga keladi. Nazorat mexanizmini harakatga keltiradigan kuch ma‘naviyatdir, chunki ma‘naviyat insonda o‘zini-o‘zi nazorat qiladigan ichki nazoratni shakllantiradi. Ma‘naviyat negizida shakllanadigan ichki nazorat orqali o‘zini tartibga sola olgan odamgina o‘zgalarni nazorat qilib, tartibga chaqirishi mumkin. Nazorat tizimi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qancha elementlardan iborat

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish- ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi. 2010-yil 27 yanvar.

² Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash-barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning muhim sharti. Xalq so‘zi, 2017-yil 14-iyun.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bo‘lgan yaxlitlikdir. Nazorat tizimining elementlari ichida siyosiy partiyalar nazorat mexanizmini harakatga keltiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilishlari lozim. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari ichida faqat siyosiy partiyagina ham davlatga, ham jamiyatga tegishli institut va shuning uchun ham hokimiyatga ta’sir etish imkoniyati keng bo‘lgan real siyosiy kuch hisoblanadi.³

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini va, jumladan, siyosiy partiyalarning nazorat funksiyalarini kuchli qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin yaratilgan ushbu sharoitlarga qaramasdan siyosiy partiyalarning nazorat funksiyalarini kuchli qilishga asosan ikkita sabab to‘siq bo‘lmoqda. Birinchisi, jamiyatning nazoratga doir bilimining yetarli emasligi bo‘lsa ikkinchisi, odamlardagi ma’naviy qashshoqlik oqibatida kelib chiqadigan befarqlik kayfiyatidir. Befarqlik kayfiyatini pasaytirib, daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlantirishimiz uchun markaziy televideniye huzurida ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan “Motiv” teleko‘rsatuvini joriy qilish zarur. Teleko‘rsatuv jarayonida befarqlikning sababi va motivi aniqlanib ularni bartaraf etish masalalari muhokama qilinadi. Befarqlikni jilovlab, daxldorlik hissini kuchaytirishning ahamiyati shundaki, befarqlik bo‘lgan joyda nazoratga doir bilim kuchli bo‘lgan taqdirda ham nazorat mexanizmi ishlamaydi.⁴

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov yangi shakllangan Oliy Majlisning qo‘shma majlisida (2010-yil 27-yanvar) “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish - ustuvor maqsadimiz” mavzusida ma’ruza qilib, asosiy e’tiborni ijroiya hokimiyat ustidan nazorat tizimini takomillashtirishga qaratib: “Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari - Kengashlar oldida turgan ikkinchi g‘oyat muhim vazifa - bu qabul qilingan qonunlarni ijro etuvchi hokimiyat, ya’ni hukumat tomonidan markazda, hokimlar tomonidan esa joylarda qanday bajarayotgani ustidan qat’iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o‘rnatishdan iboratdir”,⁵ deb ta’kidlagan edi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga intilganligidan dalolat beradi.

Siyosiy partiyalar rolini oshirish yuzasidan Prezidentimiz quyidagi so‘zlari ham

³ Nabiye F.X. Ijtimoiy nazorat. Monografiya. Samarqand. SamDU nashri. 16-bet

⁴ Nabiye F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand. SamDU nashri. 160-bet

⁵ Xalq so‘zi. 2010 yil 27-yanvar, 3-bet.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

alohida ahamiyatga ega: “Qachonki siyosiy partiyalarning faolligi oshib, parlament doirasida ular o‘rtasida sog‘lom raqobat va baxs-munozara muhiti shakllansa, shundagina vakillik hokimiyati organlari ham samarali faoliyat ko‘rsatadi”.⁶ Nazorat asosiy e‘tiborni qonunga va axloqqa rioya qilishga qaratishi lozim. Qayerda qonun buzilishi, axloq buzilishi holatlari namoyon bo‘lsa, deputatlar, siyosiy partiyalar va mahallalar o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, siyosiy partiyalar faoliyati va ular o‘rtasidagi raqobat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lishi lozim va, eng avvalo, sud hokimiyati, kadrlarni tanlash va rag‘batlantirish tizimida ochiqlikni ta‘minlashga erishishga qaratilishi lozim. Ushbu sohadagi ochiqlik siyosiy partiyalarning nazorat faoliyatini samarali amalga oshirishni ta‘minlaydi. Siyosiy partiyalarning samarali nazorati ushbu sohalarda ijtimoiy tartibni o‘rnatish asosida ijtimoiy hayotning boshqa barcha sohalarida adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish- ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi. 2010-yil 27 yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash-barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning muhim sharti. Xalq so‘zi, 2017-yil 14-iyun.
3. Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Monografiya. Samarqand. SamDU nashri. 16-bet
4. Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand. SamDU nashri. 160-bet
5. Xalq so‘zi. 2010 yil 27-yanvar, 3-bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-“O‘zbekiston” 2016-yil. 44-bet.

⁶ Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-“O‘zbekiston” 2016-yil. 44-bet.

